

Farg‘ona viloyati hokimligida 2026-yilning 6-oyi davomida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlar bilan ishlash natijalari to‘g‘risida

MA'LUMOT

2026-yil 6-oy davomida Prezidentning Virtual qabulxonasi orqali viloyat hokimligiga jami **8 803 ta** masalada murojaatlar kelib tushdi. Viloyatning ijobiylik darajasi **48%** tashkil etadi.

Hududlar kesimida o‘tkazilgan tahlil natijalari ayrim shahar va tumanlarda aholi murojaatlari sonining yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda.

Farg‘ona shahar (**1 042**) ta, Beshariq tumani (**686**) ta, Qo‘qon shahar (**617**) ta, Quva (**445**) tamurojatlar kelib tushgan.

Aholi murojaatlari bilan ishlash samaradorligini baholovchi mezonlardan biri takroriy murojaatlar hisoblanadi.

Birinchi yarim yillikda kelib tushgan takroriy murojaatlar hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p takroriy murojaatlar quyidagi shahar va tumanlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

Jumladan, Farg‘ona shahar (**30**) ta, Qo‘qon shahar (**26**) ta, Quva tumani (**19**) ta, Marg‘ilon shahar va O‘zbekiston tumanida (**14**) ta, Farg‘ona tumanida (**11**) ta **takroriy murojaatlar kelib tushgan.**

O‘zbekiston Respublikasining «**Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida**»gi Qonuniga muvofiq murojaatlar belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqilishi belgilab qo‘yilganiga qaramay, birinchi yarim yillikda ayrim murojaatlar **30 kundan ortiq muddatda kechiktirib ijro etilgani** aniqlandi. 30 kundan ortiq muddatda kechiktirib ijro etilgan murojaatlar quyidagi shahar va tumanlar hamda tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Marg‘ilon shahar (**20**) ta, Buvayda (**13**) ta, Uchko‘prik tumanlarida (**11 ta**) murojaatlar muddatidan kechiktirib bajarilgan.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan tahlil natijasiga ko‘ra, ***Uchko‘prik, Toshloq, Rishton, Beshariq tumanlari, Farg‘ona, Marg‘ilon, Qo‘qon shaharlarida murojaatlar*** soni oshgan.

Farg‘ona viloyati bo‘yicha Virtual va Xalq qabulxonalariga 2025-yilning 2-yarim yilligi va 2026-yil mart oyiga qadar kelib tushgan **50 mingdan ziyod** murojaatlarni qayta o‘rganish ishlari olib borilmoqda. Murojaatlarning 166 tasining natijadorligi qayta tahlil etilib, Prezident Virtual Qabulxona tizimiga to‘g‘ri kiritilishi ta‘minlandi. Natijada joriy yil 1-yarim yilligi davomida viloyatda **9 mingdan ziyod** murojaatlar takroran o‘rganib chiqildi.

Bugungi kun holatiga jami qayta o‘rganilgan **503 ta murojaatlardan 55 tasi ijobiy hal etildi, 87 ta holatda qaytadan tushuntirildi, 361 tasi o‘rganish jarayonida.**

Joriy yilning 1-may kundan 1-iyun kuniga qadar Prezident portali elektron tizimiga 3 648 ta murojaatlar ro‘yxatga olingan bo‘lsa, shulardan 35 ta muddatidan kech bajarilgan murojaatlar ijrochilarinnig intizomiy javobgarligi yuzasidan viloyat shtabiga axborot kiritildi.

Prezidentimizning PF-51 Farmonida qo‘yilgan vazifalari ijrosini ta‘minlash

maqsadida takroriy va jamoaviy murojaatlarda ko'tarilgan muammoli masalalarni joyiga chiqqan holda o'rganish va amaliy yordam ko'rsatish choralari ko'rildi.

Jumladan, Prezident Virtual qabulxonasi orqali 30 nafar fuqarolarimizni muntazam ravishda takror-takror qabulini so'rab murojaat etishlari hisobiga, viloyatda takroriy murojaatlar soni 600 tadan yuqoriligini bartaraf etish maqsadida fuqarolarning murojaatlari tahlil etilib, ko'rsatilgan yordamlar umumlashtirilib, viloyat shtabi a'zolari ularning yashash joyiga borib o'rganishlarni tashkil etishlari uchun birlashtirildilar.

Murojaatlar bilan ishlash samaradorligini oshirish, aholi murojaatlarida ko'tarilgan masalalarni **hudud va tarmoq kesimida joyiga chiqib** hal qilish uchun viloyatda **hokimlik, tashkilot va boshqarmalarning rahbar xodimlaridan iborat tezkor shtab** tuzildi. Viloyatda "**Qarshi shahar tajribasi**" asosida aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqildi.

Xalq deputatlari Farg'ona viloyati kengashining sessiyasida tasdiqlangan Farg'ona viloyati aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda "**Farg'ona tajribasi**"ni yaratish dasturining ijrosi yuzasidan joylarda olib borilayotgan ishlarning ahvolini viloyat shtabi a'zolari tomonidan o'rganish jadvali ishlab chiqildi. Shtab a'zolarining oldiga qo'ygan vazifalar ijrosi bo'yicha **2-iyul kuni** yig'ilish o'tkazilib, shahar, tumanlarga tasdiqlangan jadval asosida birlashtirilgan mas'ullarga belgilangan kunlarda shahar, tuman hokimliklarida murojaatlar bilan ishlash holatini o'rganish va qayta o'rganish natijalarini ***tahlil qilish bo'yicha topshiriqlar berildi.***

Viloyat hokimi va hokim o'rinbosarlarining viloyat Xalq qabulxonasida qabullarni muntazam o'tkazib borish maqsadida qabullar jadvali ishlab chiqilib, viloyat hokimi tomonidan tasdiqlandi. Shuningdek, shahar, tuman hokimliklari tomonidan ham shaxsiy qabullar jadvallari ishlab chiqilib, shahar, tumanlardagi Xalq qabulxonalari binosiga joylanib, o'tkaziladigan **shaxsiy qabullar** haqida oldindan veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlarda qabul kuni va vaqti, joyi haqida e'lonlar berilmoqda.

Viloyat hokimi va hokim o'rinbosarlari viloyat Xalq qabulxonasida jismoniy va yuridik shaxslar vakillari uchun qabullar jadvali ishlab **chiqilib, belgilangan kunlarda qabullar o'tkazilmoqda.**

Jumladan, viloyat hokimi X.Bozorov tomonidan Farg'ona, Quvasoy shaharlarida, Toshloq, Beshariq, Rishton, Bag'dod, Qo'shtepa;

Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari X.Dolimov Farg'ona shahar, Dang'ara, O'zbekiston tumanlarida;

Viloyat hokimining xotin-qizlar bo'yicha o'rinbosari K.Kavlonova Farg'ona, Quvasoy, Marg'ilon shaharlari va Qo'shtepa tumanida;

Qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari A.Tursunov Qo'shtepa, Bag'dod, Uchko'prik, Rishton, O'zbekiston tumanlarida;

Turizm bo'yicha viloyat hokimi o'rinbosari H.Ahmedov tomonidan Farg'ona shahar, Bag'dod tumanlarida qabullar tashkil etildi.

Farg'ona shahar hokimligi tajribasi asosida faoliyatga sun'iy intellekt tadbiq etilishi, Situatsion markaz faoliyatini yoritish maqsadida **18-27-iyun** kunlari Farg'ona telekanali orqali ko'rsatuv efirga uzatildi. Murojaatlar bilan ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda jamoatchilik fikrini chuqur va tizimli tahlil qilishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ***radioeshittirish efirga uzatildi. "Yangi Farg'ona" gazetasining 47-sonida "Xalq roziligi-islohotlarning bosh mezonlari" mavzusida maqola chop etildi.***

"Oydin" gazetasining 10-sonida ***"Qabulga ayol keldi"*** nomi bilan maqola yoritildi.

Joriy yilning birinchi yarim yilligida tasdiqlangan rejaga muvofiq aholi murojaatlari bilan ishlash holatini o'rganish maqsadida **5 ta boshqarma hamda 7 ta shahar va tuman hokimligida** seminarlar o'tkazildi va **4 ta shahar va tuman hokimligi hamda boshqarmada** aholi murojaatlari bilan ishlash holati joyiga chiqqan holda o'rganildi.

Birinchi yarim yillik davomida murojaatlarni ko'rib chiqish, takroriy murojaatlarni kamaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi va kelgusida ham murojaatlar bilan ishlashda nazorat, tahlil yanada kuchaytirilib, har bir murojaatning qonuniy va o'z vaqtida hal etilishi ustuvor vazifa sifatida davom ettiriladi.

Viloyat hokimligi Devonxona bo'limi boshlig'i
M.Axunjanova.